

PICHOQ / KNIFE

Uralova Shaxlo Shuxrat qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida pichoq/knife so'zlarning etimologiyasi, ma'no nozikliklari, pichoq funksiyasining murakkab nominatsiyalari, pichoq turlari nomlari, pichoq qismlari, tayyorlanadigan materiallar va uning yasalishi bilan bilan bog'liq bo'lgan so'zlar semantikasi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, ingliz tili, maishiy leksika, oshxona anjomlari, pichoq, semantika, nominatsiya, murakkab nominatsiya, etimologiya, pichoq turlari nomlari, pichoq qismlari va materiallari nominatsiyalari.

PICHOQ / KNIFE

Uralova Shaxlo Shuxrat qizi,
magistrant of Termiz State Pedagogical Institute

Abstract. The article discusses the etymology of the words «knife» in English and Uzbek, subtleties of meaning, complex designations of the function of a knife, names of types of knives, knife parts, materials used, and semantics of words related to its manufacture.

Keywords: Uzbek language, English language, household lexicon, kitchen utensils, knife, semantics, nomenclature, complex nomenclature, etymology, names of types of knives, nominatives of knife parts and materials.

ПИЧОҚ / KNIFE

Уралова Шахло Шухрат қизи,
Магистр Термезского государственного педагогического института

Аннотация. В статье обсуждается этимология слова «нож» в английском и узбекском языках, тонкости значения, сложные обозначения функции ножа, названия типов ножей, деталей ножа, используемых материалов и семантика слов, связанных с его изготовлением.

Ключевые слова: Узбекский язык, английский язык, бытовая лексика, кухонная утварь, нож, семантика, номенклатура, комплексная номенклатура, этимология, названия видов ножей, номинативы деталей ножа и материалов..

Qadimgi rim arxitektori va mexanigi, ensiklopedist olim Mark Vitruviy Pollion fikriga ko'ra, har qanday yaxshi narsa uchta ajralmas xususiyatga ega bo'lishi kerak, ya'ni foydalilik, mustahkamlik, chiroyllilik [1].

Yuqoridagi har uchala xususiyatni o'zida to'liq mujassam etgan, insoniyat tarixiga eng katta ta'sir ko'rsatgan predmetlar orasida pichoq alohida o'rinni egallaydi. U inson tomonidan yaratilgan ilk qurol va anjomlardan biridir. Pichoqlar uy-ro'zg'or va xo'jalik buyumi bo'lib qolmay, ayni paytda milliy san'at asari darajasiga ko'tarilgan. Shuningdek qurol sifatida ham qo'llaniladi.

Arxeologiya fanining dalolat berishicha, insoniyat tarixi tosh, mis, bronza va temir davrlarga bo'linadi. Tosh davri an'anaga ko'ra paleolit yoki qadimiyl tosh asri (mil. avv. 2,6 mln. yil – eramizdan oldingi 10 ming yillik), mezolit yoki o'rta tosh asri (mil. avv. X – IX mingyillik – eramizdan avalgi VII mingyillik) va neolit yoki yangi tosh asri (mil. avv. VI – V mingyillik – mil. avv. III mingyillik) davrlarini o'z



ichiga olsa [2], eneolit (mis asri, mis-tosh asri, xalkolit) taxminan mil. avv. IV-III mingyilliklarni, bronza asri mil. avv. XXXV – XXXIII – XIII – XI mingyilliklarni [3] qamrab oladi. Keyingi davr temir davri bo‘lib, “O‘rta Osiyo tarixida mil. avv. X-VIII asrlar temir davriga o‘tish bosqich hisoblanadi <...> Markaziy Qozog‘iston dasht yodgorliklarida mil. avv. VIII-VII asrlarga oid temir qurollari topilgan, Orolbo‘yi qabilalarining qadimgi temir buyumlari mil. avv. VII-VI asrlar bilan belgilangan” [4].

Tarixning har qanday davrida insonlarning hayoti ularning maishiy turmushida tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lgan. Maishiy turmushda qo‘llaniladigan so‘zlar maishiy leksikani tashkil etadi. Maishiy leksikaning ajralmas qismi, uning eng ko‘p uchraydigan so‘zlaridan biri o‘zbek tilida pichoq, ingliz tilida knife leksemasidir.

Eng qadimgi pichoqlar paleolit davrida paydo bo‘lganligi ma’lum. Bu degani bugungi kundan uch million yil avval. Birinchi pichoqlar tosh (ko‘pincha chaqmoqtosh (kreminiy) (miloddan avvalgi 2600 y.) parchalaridan bo‘linib yasalgan. Shuningdek, dastlabki pichoqlar obsidin (vulkanik shisha)dan ham tayyorlangan. Keyinchalik bodom shakliga ega bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan pichoqlarga yog‘och yoki suyak tutqichlar biriktirila boshlangan. Suyak, yog‘och va bambukdan yasalgan pichoqlar ham keng qo‘llanilgan.

Taxminan 5000 yil oldin inson metallni olish va qayta ishlashni o‘rgandi va mis va bronzadan pichoq yasashni boshladi. Janubiy Amerikada pichoqlar oltindan ham yasalgan.

Dunyo amaliyotida pichoqlar belgilangan vazifalariga ko‘ra oshxonalar pichoqlari, qurol sifatida ishlatiladigan pichoqlar (shtik-pichoq (shtikli (nayzali) pichoq, jangovor pichoq, o‘z-o‘zini himoya qilish uchun pichoq, otish pichog‘i, ballistik pichoq (erkin otilgan jism trayektoriyasi bo‘ylab uchadigan pichoq), tesak (dudama qilich, katta xanjar), fashin pichog‘i (sapyor ishlari uchun va shox-shabba kesadigan pichoq), turizm, ov va baliqchilik pichoqlari (ov pichoqlari: qushlarni tutish uchun pichoq, terini shilish uchun pichoq (skinner), lager pichog‘i, baliqchilik pichoqlari, uzum tor va sirpanmaydigan tutqichli file pichog‘i, turist pichoqlari, o‘simliklar, shox-shabbalar, qamishlarni kesish uchun mo‘ljallangan machete pichoqlari, ko‘p funksiyali ohir holatlarda yashab qolishga yordam beradigan pichoqlar, universal pichoqlar (har kuni taqib yuriladigan pichoqlar, multitull (ko‘p anjomli) pichoqlar, kanselyar pichoqlari, qurulish pichoqlari), maxsus pichoqlar (jarrohlik pichoqlari, go‘shtni suyakdan ajratish uchun pichoqlari, etikdo‘z pichoqlari, suv ostiga sho‘ng‘iganlar uchun pichoqlar, qo‘ziqorin yig‘uvchilarining pichoqlari, bog‘bon pichoqlari, alpinizm va toshga chiqish uchun pichoqlar, otish moslamasi bo‘lgan pichoqlar) [5].

Hozirga o‘zbek tilida “pichoq” so‘zi polisemant leksema hisoblanadi. U quyidagi ma’nolarga ega: “1) dastaga o‘rnatilgan yassi va uzun tig‘li ro‘zg‘or asbobi; 2) (texnikaga oid ma’no) turli asboblarning kesuvchi qismi” [6].

Bu ot qadimgi turkiy manbalarda bichäq (Devon, I, 366; DS, 98), вычак (DS, 104) shakllarida keltirilgan. Shularga ko‘ra bu so‘zning tarkibi ikki xil talqin qilinadi: 1) qadimgi turkiy tildagi ‘o’tkir kesuvchan asbob’ ma’nosini anglatgan bi otidan (DS, 97) kichraytirish ma’nosin ifodalovchi –chäq qo‘srimchasi bilan yasalgan (ESTYa, II, 160): bi + chäq = bichäq; 2) Qadimgi turkiy tildagi ‘kes-’ ma’nosini anglatgan выч- fe’lidan (DS, 104) –(a)q qo‘srimchasi bilan yasalgan (ESTYa, II, 160): выч- + aq = вычак; keyinchalik so‘z boshlanishidagi b tovushi undoshi р undoshiga, o‘zbek tilidagi ryichaq so‘zi oxiridagi a unlisi ä unlisiga almashgan, ы unlising qattiqlik belgisi yo‘qolgan: выч- + aq = вычак > ryichaq > pichäq” [7].

Eramizdan oldingi 8-asrda Chustning Bibiona ziyoratgohi hududida pichoq

ishlab chiqarila boshlagan.

Pichoq uch qismdan iborat: 1) tig‘ – pichoqning kesadigan qismi; 2) dasta – pichoqning qo‘l bilan ushlanadigan qismi; sop. 3) qin – pichoq, qilich, xanjar va boshqa keskir asboblarni solib qo‘yish uchun maxsus moslama.

Pichoq tig‘i tayyorlanadigan materiallarga (xomashyosi tarkibiga) a) “damashqiy” (Damashq po‘latidan); b) “isfahoni” (Isfahan po‘latidan), v) “farangiy” (Yevropa po‘latidan), g) “o‘rusiy” (rus po‘latidan), d) “turkona” (mahalliy po‘latdan), ye) egov; yo) klapan; j) temir kabi turlarga bo‘linadi. Tig‘iga ko‘ra “yakkadam” (bir tomoni tig‘), “dudama” (ikki tomoni ham tig‘) pichoqlar mavjud.

Pichoq dastalari a) suqma, b) yorma, v) naqshinkor bo‘ladi. Pichoq dastasi bezatilishiga ko‘ra: chalabuzar (tig‘i bo‘g‘zidan qayrilib, dastasi yopiladigan), mardona (kashtachilarga mo‘ljallangan), sodda (uy-ro‘zg‘orda ishlatiladigan), gulor (dastasiga naqsh solingan), chilmixi gulli (dastasiga chilmix qoqib, gulor qilib yasalgan), rufta (tig‘ining yuzi sidirg‘asiga charxlangan) kabi turlari mavjud.

Pichoq sopi yasalgan materialiga ko‘ra quyidagi bo‘linadi: a) bambuk sopli; b) tekstolit sopli; v) buxi shoxidan yasalgan; g) saygak shoxidan yasalgan; d) jayron shoxidan yasalgan; ye) qoramol shoxidan yasalgan; yo) orgsteklo sopli; j) yog‘och sopli; z) temir sopli.

Pichoqni yasashda temir, zok, gulband, piston, qayroq, bozg‘ardon, chilmix, parma, sadaf arra kabi asbob-uskunalar ishlatiladi. Ularning har birining o‘z ma’nolar bor. Tig‘ombir tig‘ni qimchib ushlab turadi. Bozg‘ardon – bir qarich uzunlikdagi temir. Bozg‘on – katta og‘ir bolg‘a. Sandon – po‘latdan yasalgan taglik. Sadaf arra – kichkina arra. Chilmix, parma kabi asboblarda pichoqdagi gul o‘rni o‘yiladi [8].

Pichoqning shakliga ko‘ra a) mol shoxidan yasalgan suqma pichoq – “tol bargi”, b) to‘g‘ri tig‘li pichoq, v) qozoqcha qayirma pichoq, g) qayqi pichoq, d) suqma afg‘on pichog‘i, ye) “qo‘shpichoq” (buklama), yo) “o‘roqi” (o‘roq kabi qayrilib, tig‘i ichki tomonda bo‘ladi) kabi xillari bor

Pichoqning “ro‘zg‘ori”, “oshpichoq”, “chopqipichoq”, “sallohi” (qassoblar ishlatadigani), “mardona” (erkaklar beliga osib yuradigani), “shamshirak” (qilichdan kichikroq bo‘ladi), “xarbo‘zi” (qovun so‘yiladigan), “chol pichoq” (suyak tozalashga mo‘ljallangan), sovg‘alar uchun kabi turlari mavjud.

Pichoq bajaradigan funksiyasiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Mevalar po‘stini tozalash uchun.
2. Sabzi to‘g‘rash uchun.
3. Piyoz to‘g‘rash uchun.
4. Qovun so‘yish uchun.
5. Go‘sht to‘g‘rash uchun.
6. Katta shoxli mol so‘yish uchun.
7. Qo‘y so‘yish uchun
8. Molni yoki qo‘yni tersini shilish uchun, ya’ni terilash uchun.
9. Tort kesish uchun.
10. Non kesish uchun.
11. Sariyog‘ uchun.
12. Pishloq (sir) kesish uchun.

Keyingi yillarda o‘zbek tilida jahondagi globallashuv jarayoni tufayli “go‘sht maydaligich (myasorubka) pichog‘i”, “pitssa pichog‘i”, “xot-dog pichog‘i”, “elektropichoq” kabi yangi nominatsiyalar paydo bo‘ldi.

Ingliz tilida knife so‘zi orqali ham ot so‘z turkumi, ham fe’l so‘z turkumi bilan ifodalanadi. A.S.Hornby mualliflik qilgan “Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English” lug‘atda keltirilishicha, knife – “a sharp blade with a handle, used

for cutting or as a weapon”(kesish uchun yoki qurol sifatida ishlataladigan tutqichli o‘tkir pichoq) [9]. Knife I ot so‘z turkumi sifatida “1) pichoq; 2) xir. skalpel; 3) tex. o‘roq randa, qirg‘ich, keskich” ma’nolarida keladi. Knife II fe’l so‘z turkumi vazifasida “1) pichoq bilan kesmoq; 2) zarba bermoq, pichoqlamoq; 3) am. ko‘chm. o‘tkazmaslik, imtihonda yiqitmoq” semantikasiga ega [10].

Knife so‘zining etimologiyasi haqida har xil fikr-mulohazalar mavjud.

Ingliz etimologik lug‘atlari va boshqa manbalar, masalan Collins English Dictionary knife/pichoq so‘zining kelib chiqishi ma’lum emasligini, yoki qadimgi ingliz cnif so‘zidan, yoki eski norvej knīfr leksemasidan, yoki o‘rtta-past-nemis knīf leksik birligidan kelib chiqqanligini ko‘rsatishadi. Demak, manba sifatida cnif, knīfr va knīf so‘zlari keltiriladi. Ular orasida qanday bog‘liqlik bor? Balki yo‘qdir. Lekin shuni qayd etish kerakki, cnifdan knīfrga o‘tish ingliz tiliga xos bo‘lgan C → K prinsipi orqali amalga oshgan. Yuqorida keltirganimizdek, knife so‘zi “pichoq, skalpel, o‘roq randa, qirg‘ich, keskich” ma’nolaridan tashqari “kesmoq, parchalamoq, sanchmoq, zarba bermoq (barcha harakatlar pichoq, keskich, skalpel bilan amalga oshiriladi)” semantikasiga ham ega. Bu holatda ingliz tiliga xos bo‘lgan xususiyatni kuzatish mumkin. Ya’ni, bir so‘z ham harakatni (kesmoq), ham harakatni amalga oshiruvchi predmet (pichoq)ni ifodalaydi. Ingliz tilida “kesmoq” ma’nosida “cut” leksemasi ham qo‘llaniladi. Ot so‘z turkumi sifatida “cut” “harakat (kesish)ning natijasi – parcha, kesilgan joy, bo‘lak, qism, burda, kesik, tilim, qiyqim, rezgi” kabi ma’nolarga ega [11].

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, ingliz tilida pichoqning quyidagi 24 ta nominatsiyalari kuzatiladi [12]: Bread knife / non uchun pichoq.

1. Butter spreader / knife / sariyog‘ uchun pichoq.
2. Cake knife / tort uchun pichoq.
3. Cheese knife with two prongs / Sir (pishloq) uchun ikki tishli pichoq.
4. Chopping-knife / qassobning katta pichog‘i, chopqisi.
5. Clasp knife / buklama pichoq.
6. Crab knife / krab va qisqichbaqalar uchun pichoq.
7. Dessert knife / desert pichog‘i.
8. Dinner knife / oshxona pichog‘i.
9. Fish knife / baliq uchun pichoq.
10. Fish serving knife / baliq servirovaksi uchun pichoq.
11. Fruitcake knife / mevali tort uchun pichoq.
12. Fruit knife / mevalar uchun pichoq.
13. Kitchen knife / kuxnya pichog‘i.
14. Meat knife / go‘sht uchun pichoq.
15. Paring knife / sabzavotlarni tozalash uchun pichoq.
16. Parmesan knife / parmezan (italyan qattiq pishlog‘i) uchun pichoq.
17. Pie knife / pirog uchun pichoq.
18. Pocket knife / cho‘ntak pichog‘i.
19. Salmon knife / losos (go‘shti qizil baliq) uchun pichoq.
20. Scraper-knife / qirg‘ich pichoq (kurak pichoq).
21. Steak knife / bifshteks uchun pichoq (ko‘p holatda tishchalari bo‘ladi).
22. Table knife / stol pichog‘i.
23. Tomato knife / pomidorlar uchun pichoq.

Ingliz tilida knife/pichoq so‘ziga ma’nodosh sifatida “cucumber slicer” / “bodringlarni kesish uchun pichoq”, “fish slicer” / “baliqlarni bo‘laklash uchun pichoq” kabi murakkab so‘z birikmali nominatsiyalar tarkibida uchraydigan, “an

instrument specially adapted for slicing” / “ingichka qatlam, bo‘laklarga bo‘lish uchun maxsus pichoq” ma’nosidagi slicer, “food chopper”/“mahsulotlarni kesish uchun pichoq”, “meat chopper”/ “go‘shtni chopish uchun chopqi, go‘sht pichog‘i” murakkab so‘z birikmali nominatsiyalar tarkibida uchraydigan “a butcher’s cleaver” / qassob pichog‘i, chopqi” chopper, “a heavy knife or long-bladed hatchet” / “katta pichoq, chopqi”, “a butcher’s chopper for cutting up carcasses” / “qassob pichog‘i” ma’nosidagi cleaver, “apple corer” / “olma mevasi yadrosini olib tashlash uchun pichoq” nomianatsiyasidagi “a knife to take out the core of fruit” / “mevalarning yadrosini olib tashlash uchun pichoq” semantikasiga ega bo‘lgan corer so‘zлari ham uchraydi.

Inglizlar ikra uchun qoshiq va pichoqni “caviar cutlery” nominatsiyasi bilan ataydilar. Bu nominatsiya tarkibidagi cutlery leksemasi “instruments used for cutting”/ “pichoq buyumlar” sifatida izohlanadi.

Pichoq qadimda Buyuk Britaniya aholisi uchun vilka (sanchqi) vazifasini bajarganligi haqida tarixiy ma'lumotlar bor. Doktor Madlen Pelsner Kosmanning fikricha, O‘rta asrlarda Angliyada har bir mehmon mehmondorchilikka o‘z pichog‘i bilan tashrif buyurishi kerak bo‘lgan. Ular taomni pichoq bilan kesib, pichoq bilan yeishgan. Ikkinchи oshxona anjomi qoshiq hisoblangan. Insonlar qoshiqlardan vilka (sanchqi)lardan paydo bo‘lishdan ancha oldin foydalanganlar. Spoon/qoshiq so‘zi anglo-sakson o‘zagiga borib taqaladi. Spoon leksemasi tarkibidagi sport “parcha” yoki “bo‘lak” ma’nosini anglatadi, chunki birinchi qoshiqlar yog‘ochdan o‘yib yasalgan. Qoshiqlar sho‘rvalar va pudinglar uchun ishlatilgan. O‘tkir pichoq go‘sht bo‘lagini idishdan ko‘tarib olishga xizmat qilgan. Ba’zi holatlarda pichoq go‘shtni ovqatlanuvchining og‘ziga olib borish uchun ishlatilgan. Ko‘p holatlarda go‘sht barmoqlar bilan olinib tanovvul qilingan. Shunisi e’tiborga loyiqliki, ovqatlanish paytida ba’zi barmoqlar ishlatilmagan. Yog‘ga tegizilmagan barmoqlar boshqa idish uchun, shuningdek ba’zi taomlarni sous va ziravorlarga botirish uchun “saqlangan”. Idishlar almashtirilgan vaqtida va ovqatlanish tugagandan so‘ng qo‘llar yuvilgan [13].

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, bir leksema misolida, ya’ni pichoq / knife oshxona anjomining paydo bo‘lish tarixi, bu leksemalarining etimologiyasi, o‘zbek va ingliz tillarida pichoqning turlari, ularning nominatsiyalari, pichoqni tayyorlash bilan bog‘liq jarayonlarni ifoda etuvchi so‘zлarni har tomonlama tahlil etish tilshunoslikning dolzarb masalalariga oydinlik kiritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
2. <https://xn--80aajhqhktebqcvc2c9e6cj.xn--p1ai/chronological-periods>
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
4. Yusupov A.Sh O‘rta Osiyoda ilk temir davri sak qabilalarining madaniyati // Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Academic Research, Uzbekistan 483 www.ares.uz – B. 485.
5. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli : 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. – Toshkent: ”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi « Davlat ilmiy nashriyoti, 3-jild, 2007. – B .269.
7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). – Toshkent: “Universitet”, – 2000. – B. 269.
8. <https://oyina.uz/kiril/teahause/605>
9. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English. Fifth edition. – OXFORD UNIVERSITY PRESS, 1995. – R. 653.



10. Myuller V.K. Bolshoy anglo-russkiy i russko-angliyskiy slovar. 200000 slov i vystajeniy / V.K.Myuller. – M.:Eksmo, 2007. – S. 335.
11. <https://ukraineclub.net/izbrannoe>
12. Ivanova Ye.V. Strukturno-semantichekiye i lingvokulturalnye xarakteristiki angloyazychnoy bytovoy leksiki (na materiale leksiko-semanticeskoy gruppy «Posuda»): Dis. ... kand. filol. nauk. – Samara, 2011. – S. 183-184.
13. Fabulous Feasts: Medieval Cookery and Ceremony by Madeleine Pelsner Cosman – George Braziller Inc, 1999. – R. 17.